

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHISINI TAYYORLASHDA KASBIY TAYYORGARLIK TUSHUNCHASI

*Uluxanov Ibroxim Tuxtaxo ‘jayeovich, NamDPI, professor v.b.
Ne‘matxo ‘jayeva Mohinur, NamDPI, 3-bosqich texnologik ta’lim
talabasi.*

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisini tayyorlashda kasbiy tayyorgarlik tushunchasi va “Kasbiy tayyorgarlik” tushunchasini aniqlashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy tayyorgarlik, tushuncha, pedagogik tushunchalar bitiruvchi, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, malakali kadr, texnologiya.

Аннотация. В статье освещаются вопросы определения понятия профессиональная подготовка и уточнения понятия “профессиональная подготовка” при подготовке будущего учителя технологических дисциплин.

Ключевые слова: профессиональная подготовка, понимание, педагогические концепции выпускника, умение, квалификация, компетентность, квалифицированные кадры, технология.

Annotations. The article covers the issues of clarifying the concept of professional training and the concept of “Professional Training” in the preparation of the future teacher of technology.

Key words: professional training, understanding, pedagogical concepts of a graduate, skill, qualifications, competence, qualified personnel, technology.

“Kasbiy tayyorgarlik” tushunchasi ko‘pgina ilmiy nashrlarda foydalanilayotgani va pedagogikaning mazmuniga mustahkam kirib borayotganiga qaramay hozirgi vaqtgacha o‘zining aniqligiga erisha olmadi, bu uning mohiyatini ochishda turli fikrlar orasidagi farq bor bo‘lib, “Kasbiy tayyorgarlik” tushunchasini turli ma’noda aniqlashtirilishi esa o‘z navbatida kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish muammolarini echishda o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Pedagogikaning barcha uchun aniq va tushunarli terminida shunday holat yuzaga kelganki:

- birinchidan pedagogikada turli fanlar (filosofiya, psixologiya, fiziologiya, sotsiologiya, kibernetika va boshqalar orqali turlicha termin va tushunchalar ishlab turibdi.

- ikkinchidan, bu holat tushunchaning ma’no va mohiyatini o‘zgarishiga olib keladi; uchinchidan, ko‘pgina pedagogik terminlar ko‘pma’nolidir, pedagogik tushunchalar esa besh yoki undan ko‘p ta’rifga egadir.

Bundan tashqari shunday terminlar borki, ularning ma’nosi hozirgacha etarli darajada ochilmagan, ya’ni metaforik ko‘p ma’noli bo‘lib qolmoqda.

Texnologiya fani o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarlik talablariga mos kelishini bilish uchun bu talablarning asl ma’nosini bilish kerak. “Kasbiy tayyorgarlik” tushunchasini aniqlashtirish sharti oliy o‘quv yurtlari texnologik ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisiga bo‘lgan talablarning ortib borayotganligi bilan yuzaga kelmoqda va u Davlat ta’lim standartlarida o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Ta'lim sifatini keng ma'noda faraz qilish, bu bir turli ta'limning boshqa turidan farq etuvchi belgilar majmui, xususiyatlari va tavsifini aniqlashdir.

Ta'lim sifatining tor ma'nosida aniq bir kasb yo'nalishida ta'lim olgan sub'ektning aniq bir funksiyani bajara olishga tayyor ekanligi.

Ko'pgina tadqiqotchilar ishlarida ta'lim tushunchasi bilimlar tizimi, mahorat va ko'nikmalarni o'z ichiga olishi to'g'risidagi fikrni bildirganlar. Shu bilan birga ushbu tushunchani kasbiy ta'limning o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda aniqlashtirishga urinishlar mavjud.

Olingan bir qancha bilimlar miqdori, mahorat va ko'nikmalar kasbiy vazifalarni bajarishga etarli emas. Masalan, V.V.Kraevskiy ta'kidlaganidek, kasbiy bilimlarni to'liq o'zlashtirganlik, mahorat va ko'nikmalarga ega bo'lishlik o'qituvchilarning yuqori natijalariga omil bo'la olmaydi, chunki "ular bir necha bor pedagogik faoliyatda ko'zda tutilmagan holatlarda nochor ahvolga tushganlar"[1].

Yuqoridagilardan shunday xulosa kelib chiqadiki, aniq bir bilimlarni o'zlashtirganlik, mahorat va ko'nikma texnologiya o'qituvchisi uchun kerak, lekin bular kasbiy tayyorgarlikning yagona sifat ko'rsatkichi bo'la olmaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, texnologik ta'limni takomillashtirishga oid barcha ishlarda texnologik kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish zarurligini aytib o'tilgan, lekin buning ostida ko'pincha bilimlarni o'zlashtirish, mahorat va ko'nikma tushuniladi.

Xususan texnologik ta'lim tizimli jarayon bo'lib, u jamiyat bilimlari, pedagogika, psixologiya, maxsus fanlar va o'qitish metodikasi bo'yicha nazariy va amaliy tayyorgarlik o'zaro integratsiyasini tavsiflashdir. Texnologik tayyorgarlik deb talabalarning bilimlarni o'zlashtirish, mahorat va ko'nikmalarga ega bo'lishi tushuniladi.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi bilimlarning o'zlashtirganligi va o'z ichiga maqsad qo'ya bilishlik, analitik, faoliyat, natijani baholash va oldindan bashorat qila olish kabilarni o'z ichiga olgan maxsus mahorat majmuidir. Hozirgi vaqtda "kasbiy tayyorgarlik" tushunchasiga faqat kongnitiv xarakterdagi emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan qo'shimchalar kiritilmoqda.

Kasbiy tayyorgarlikga ega bitiruvchi - maqsadi va natijalari aniq bo'lgan mustaqil malakali kasbga texnologiya fani o'qituvchisi bo'lib, u yana qo'shimcha bilim, mahorat va ko'nikma talab etuvchi ishlab chiqarish muhitiga qo'shilishga tayyor bo'lishi lozimdir.

V.A.Slastenin fikricha, "kasbiy tayyorgarlik" ning asl mohiyati shundan iboratki, pedagogika oliy ta'lim muassasalari texnologik ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi bilimlarni o'zlashtirib olgandan so'ng quyidagilarni bajara olishi kerak:

- o'zining kasbiy faoliyatini yuqori ilmiy pedagogik darajada qura olishi;
- pedagogik hodisalarni mustaqil o'rganib chiqishi, tavsiflash va tushuntirib berish;
- mustaqil ravishda pedagogik ilmlarni egallash, kelib tushayotgan ma'lumotlarni tezlik va mahorat bilan o'zlashtirishi.

Kasbiy pedagogik tayyorgarlikni to'liq egallagan bo'lg'usi texnologiya fani o'qituvchisi o'qitilayotgan fanlar bo'yicha katta hajmdagi siyosiy, iqtisodiy va ilmiy

bilimlarga ega bo'lishi, yuqori malaniyatga ega bo'lishi, pedagogika nazariyasini bilishi, pedagogik psixologiyani bilishi, berilgan pedagogik masalani sharoitni hisobga olgan holda echimini topa bilishi va natijalarni o'zini tanqid qilish bilan tahlil qilishi, keng doiradagi bilim va ko'nikmalarni uyg'unlashtira bilishi lozim. Shu bilan birga ziyraklik bilan e'tibor qilish kerakki, kasbiy tayyorgarlik madaniyatning yuqori darajasi va qobiliyatidir. Texnologik ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi pedagogik masalani sharoitni hisobga olgan holda echimini topa bilishi va natijalarni o'zini tanqid qilish bilan tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Yuqoridagilardan shuday xulosa qilish mumkinki, "kasbiy tayyorgarlik" ma'lum bir bilimlarni o'zlashtirish, mahorat va ko'nikmalarga ega bo'lishdan tashqari bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisida mustaqil bo'la olish kabi ko'rsatkichni ham shakllantirishi kerak bo'ladi. Bu o'z navbatida texnologiya fani o'qituvchisini ishlab chiqarish muhitiga kirib ketishini ta'minlab beradi. Tushuncha va fikrlarning bir biridan farq qilinishiga qaramay so'z bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining har tomonlama bilim va mahoratni egallagan bo'lishi lozimligi haqida boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev S.X., Kirgizova N.H. O'quvchilar kreativligini ergonomik yondashuv asosida texnologiya fanidan to'garak mashg'ulotlari jarayonida takomillashtirish. // Zamonaviy ta'limi jurnali. – Toshkent, 2023. – №4(125). – 29 – 40 b.

2. Ruslanovna, M. J. (2023). Modern technologies for teaching students the skills of technological thinking. *World Bulletin of Social Sciences*, 20, 1-3.

3. Ulukhanov, I., & Khusayinova, G. (2024). Digitalized learning and its effectiveness in technological education. *Science and innovation*, 3(B4), 236-243.

4. Uluxanov, I. T. X. J., & Ubaydullaev, S. Q. (2021). O'quvchilarning kreativ kompetentlikini shakllantirish mezonlari. *Scientific progress*, 2(8), 814-822.

5. Умурзақов, А. Х., Улуханов, И. Т., & Инамидинова, Д. К. (2022). Талабаларда иждоркорлик қобилиятини шаклланишида умумтехник фанлар бўйича тизимли фикрлашнинг ўрни. *Механика и технология*, 2(7), 192-194.

6. Tokhtakhojaevich, U. I., Abdurasulovna, K. G., & Kadirovich, U. S. (2022). Pedagogical conditions for the formation of creative competence of students.

7. Uluxanov, I. T., & Sayfitdinov, A. SOLUTIONS TO CERTAIN ISSUES OF EMERGENCY PROTECTION. *Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА*, 21, 356-361.

8. А.Маткаримов Измерение и контроль вибраций при производственном процессе. Достижения науки и образования 2017.- №5 (18)

9. А.Маткаримов Проблема охраны труда и промышленная безопасность на опасных производственных объектах. Достижения науки и образования 2017.- №6 (19)

10. А.Маткаримов Применение технологии проблемного обучения в преподавании основ безопасности жизнедеятельности. Проблемы науки 2017.- №7 (20)